



Functional analysis of appositive constructions expressed by a preposition and possessing a continuous and prolonged character

Lutfiya KARIMOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025
Received in revised form
15 May 2025
Accepted 25 June 2025
Available online
15 July 2025

Keywords:

Appositive element,
appositive construction,
text,
structural form,
continuous or prolonged
element,
paragraph,
syntactic,
semantic,
preposition,
complement,
sentence,
communicative function.

ABSTRACT

The continuous or prolonged nature inherent in appositive elements within the structure of an appositive construction plays an important role in their classification into structural groups.

This article is devoted to this topic and examines the extended form of appositive elements, that is, elements that are repeated within appositive constructions consisting of one or more paragraphs. Attention is given to examples from a number of literary works.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp29-34>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Predlog bilan ifodalanib, uzluksiz yoki davomli xarakterga ega bo'lgan ilova konstruksiyalarning funksional tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ilova element,
ilovali konstruksiya,
matn,
strukturaviy shakl,
uzluksiz yoki davomli
element,
abzas, sintaktik,
semantik,
predlog, to'ldiruvchi,
gap,
kommunikativ funksiya.

Ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlarga xos bo'lgan uzluksiz yoki davomli xarakter strukturaviy guruhlariga ajratishda muhim o'rin tutadi. Mazkur maqola ushbu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda bir qancha badiiy asarlardagi misollarga e'tibor qaratilgan.

¹ Independent Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Функциональный анализ присоединительных конструкций, выраженных предлогом и обладающих непрерывным и длительным характером

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Присоединительный элемент,
присоединительная конструкция,
текст,
структурная форма,
непрерывный или длительный элемент,
абзац, синтаксический, семантический,
предлог,
дополнение,
предложение,
коммуникативная функция.

Непрерывный или длительный характер, присущий присоединительным элементам в составе присоединительной конструкции, играет важную роль при разделении их на структурные группы.

Данная статья посвящена этой теме, в ней рассматривается длительная форма присоединительных элементов, то есть такие элементы, которые повторяются в составе присоединительных конструкций, состоящих из одного или нескольких абзацев. При этом внимание уделено примерам из ряда художественных произведений.

Jahon tilshunosligida ilova hodisasi hozirgi kungacha qanchalik o'rganilish tarixiga ega bo'lmasin, u doimo har qanday tilshunoslik fani doirasida eng muhim, kam o'rganilgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki ilova hodisasi nazariyasining tarafdorlari bu mavzuga ko'pincha J.B. Buronovning ta'biri bilan aytganda yuzaki yondashishga harakat qilishadilar. Boshqacha qilib aytganda, ilova hodisasining lingvistik mohiyatini, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina xususiyatlarni (strukturaviy, ma'noviy, tipologik, fonetik va boshqalar) grammatika fani nuqtai nazaridan yechishga harakat qilishadi-yu, biroq unga bog'liq bo'lgan bunday xususiyatlarni matn nuqtai nazaridan talqin etishmaydi. Natijada ilova hodisasining ko'p tomonlari izlanish doirasidan chetda qolganday tuyuladi. Ba'zi hollarda ilova hodisaning semantik, uslubiy va boshqa xususiyatlari alohida o'rganiladi, lekin ularning ana shunday xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ichki qonuniyatlari izlanish ramkasidan chetda qolaveradi. Demak, ilova hodisasini o'rganishga nisbatan bo'lgan bunday munosabat kundan kunga ko'paymoqda.

Mazkur mavzu bo'yicha XX asrning 90-yillarida o'zbek tilshunoslaridan B.T. Tursunovning doktorlik dissertatsiyasi, B.M. Axmedova va M.B. Begmatovlarning nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan bo'lib, ushbu ishlarda ilovali elementlarning sintaktik, strukturaviy va to'ldiruvchilar orqali ifodalangan funksiyalari tadqiq etilgan.

Predlog yoki to'ldiruvchilar bilan ifodalanib keluvchi ilovali elementlar strukturasi shakllanishiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri uzluksizlik yoki davomli. Bu ko'rinishdagi ilovali elementlar o'zlarining yoyilish nuqtai nazaridan ilovali elementlarning boshqa strukturaviy guruhlariga nisbatan kamroq uchrab turadi va ularga xos strukturani shakllantiradi.

Uzluksiz ko'rinishda bo'lgan ilovali elementlar deb bir yoki undan ortiq bo'lgan abzaslardan tashkil topgan ilova konstruksiyalar tarkibida takrorlanib keluvchi ilovali elementlarga aytiladi. Uzluksiz yoki davomli ilovali elementlardan tashkil topgan ilova konstruksiyalar va ularni tashkil qiluvchi komponentlar o'zaro bir-birlari bilan doimo mazmuniy aloqadorlik munosabatida bo'lishadi.

Yuqoridagi fikrimizning isboti sifatida uzluksiz yoki davomli xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Masalan:

1. Nans gesunder Menschenverstand ist für sie selbst so natürlich und selbstverständlich, dass sie gar nicht erkennt, über welche Gabe sie damit verfügt. Die Kindererziehung hat sie davon abgehalten, ihren Traum, Ärztin zu werden, weiterzuverfolgen, aber als Krankenschwester ist sie exzellent und hat sich große Anerkennung für ihre Arbeit mit todkranken Krebspatienten erworben. Während Mack eine sehr weite Beziehung zu Gott hat, ist die von Nan tief.

[William Paul Young „Die Hütte,, 2011. S-14]

Bu yerda ilova konstruksiya o'zaro mazmuniy aloqada bo'lgan gaplarning yig'indisidan tashkil topgan yagona abzasdan iborat. Bu ilova konstruksiyada tasvirlanayotgan voqea-hodisa oila hayoti bilan bevosita bog'liq. Tasvirlanayotgan voqeaning oila uchun, o'z kasbiga mehri uchun, kasbini qay darajada sevishni ifodalash maqsadida yozuvchi ayrim sintaktik figuralarga murojaat qiladi. Ana shunday sintaktik figuralar funksiyasida uzluksiz xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlar keladi. Bu ilovali elementlar genitiv, dativ, akkuzativ kelishigini talab qiluvchi predloglar yordamida ifodalanadi, strukturaviy jihatdan sodda strukturaviy ilovali elementlardir. Biroq, bu ilovali elementlar sodda strukturaviy ilovali elementlar hisoblansa-da, biri ikkinchisidan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi.

Ilovali elementlar tomonidan butun bir matnga yoki asosiy ifoda funksiyasida keluvchi gap bo'laklariga nisbatan bildirilayotgan kommunikativ funksiyalar shu ilova konstruksiyani tashkil qiluvchi sintaktik birliklarning o'zaro strukturaviy bog'liqligini ko'rsatibgina qolmasdan, ularning mazmuniy bog'liqligini ham aks ettiradi. Bu hol tasvirlanayotgan voqeaning uzluksizligini, davomiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ilova aloqaga asoslangan katta bir matn mazmun jihatdan yakunlanadi, chunki ilovali elementlarning ma'no xususiyatlari bunday matnda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demak, ilovali elementlar qanday strukturaviy shaklga, ko'rinishga ega bo'lishmasin ularning ma'noviy xususiyatlari doimo hal qiluvchi rol o'ynaydi, sabab ular doimo mantiqiy urg'uga ega bo'ladi.

Professor M.B. Begmatov (Nemis tilida ilova konstruksiyalar monografiya Samarqand 2020) ta'kidlaganidek, ba'zi hollarda uzluksiz yoki davomli xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlar takror qo'llash asosida yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda joylashish jihatidan ikkinchi o'rinda keluvchi ilovali element, joylashish jihatdan birinchi o'rinda turgan ilovali elementni to'lig'icha takrorlashi mumkin yoki bunday takrorlanish qisman sodir bo'lishi ham mumkin. Jumladan:

2. Wieder wandte sich Betsy um und sah Nickolas fest in die Augen.

«Wenn der Ritter Lionheart töten wird, das weiß ich nicht. Einen von uns.

Irgendeinen. Und wenn es dein Vater wahrmacht, daß wir am elften November noch einmal in das Kastell gehen müssen, dann sogar zwei. Zwei von uns. Vielleicht dich und mich, vielleicht aber auch deinen Vater und Mister Crowl vielleicht Redman und Sam.

„Ich weiß es nicht,, [Küster Karl-Heinz 1973. 13].

Quyidagi misolda yagona abzasdan tashkil topgan ilova konstruksiya, bir-biridan ma'lum uzoqlikda joylashgan ammo anglatib kelinayotgan ma'no xususiyatlari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan ilovali elementlar kombinatsiyasidan tashkil topgan. Ilovali elementlar bir-birlaridan ma'lum uzoqlikda joylashishlaridan qat'iy nazar mazmun jihatdan yagona ilovali elementlardek ifodalanmoqda. Chunki bunday ilovali elementlar o'zlarining qo'shimcha ma'no xususiyatlari bilan faqatgina *-wen der Ritter Lionheart töten*

wird kabi asosiy ifodaning mazmunini izohlab, konkretlashtirib, to'ldiribgina qolmasdan, balki ikkinchi ilovali element uchun asosiy ifoda funksiyasida keluvchi *-und wenn es dein Vater wahrmacht, daß wir am elften November noch einmal in das Kastell gehen müssen, dann sogar zwei* – komponentining mazmunini ham konkretlashtiradi, to'ldiradi, izohlaydi, aniq ko'rsatadi.

Ahamiyatlisi shuki, asosiy ifoda funksiyasida keluvchi komponentlar yagona umumiy elementga ega formasida ifodalanib kelgan, u ham bo'lsa *«der Ritter Lionheart», «toten wird»* ga bo'ysundirilgan.

Shunday yagona sistemaga ega bo'lgan uzluksiz, davomli xarakterli ilovali elementlarning sintaktik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritamiz. №2 raqamli misoldagi ilovali elementlar murakkab strukturaviy ilovali elementlardir, chunki birinchi holatda ham, ikkinchi holatda ham asosiy ifodalarga ikkitadan ilovali element birikib kelgan. Uzluksiz ilovali elementni tashkil qiluvchi bunday ilovali elementlar asosiy ifodaga har xil yo'llar bilan birikib kelgan: birinchi holatdagi ilovali elementlar asosiy ifodaga parallel birikib kelgan, chunki ikkinchi ilovali element – *irgendeinen*, birinchi ilovali element *einen von uns* – siz to'g'ridan-to'g'ri asosiy ifodaga birikib kelishi mumkin. Ikkinchi holatda bunday holni kuzatib bo'lmaydi, chunki bu ilovali elementlar asosiy ifodaga ketma-ket birikkan. Demak, bu yerda ilovali elementlar polirema xarakteriga ega.

Polirema xarakteriga ega bo'lgan ilovali elementlar doimo polifunksionallikni keltirib chiqaradi.

Yagona abzasdan tashkil topgan ilovali konstruktsiya komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqalar yagona yo'l bilan ifodalanadi, ular orasidagi sintaktik aloqalar kontaktli so'z funksiyasida keluvchi *-töten* orqali ifodalanadi, *-töten* shunday bir matn tarkibida yetakchi komponent, ya'ni dominant rolini o'ynab keladi, chunki butun matn mazmuni ana shu *-töten* ga qaratilgan.

Ilovali elementlarning kommunikativ funksiyalari ham juda qiziq shakllanadi. Masalan, birinchi holatda turuvchi ilovali elementlar o'zlarining ma'no xususiyatlari bilan asosiy ifoda tomonidan anglatilayotgan mazmunni aniqlashtirib, izohlab, to'ldirib kelsa, ikkinchi holatda keluvchi ilovali elementlar esa faqatgina asosiy ifoda mazmunini aniqlashtirib, to'ldirib, izohlab qolmasdan, balki shu ilovali elementlar tomonidan bildirilayotgan qo'shimcha ma'no xususiyatini ham to'ldirib, izohlab, mazmunini yoyib beradi. Demak, ilovali elementlarning strukturaviy kengayishi ularning ma'no salmog'ini kengayishiga olib keladi.

Ba'zi hollarda ilovali elementlar monologik shakllarga ega bo'lgan matn doirasidan chiqib, dialogik xarakterga ega bo'lgan matnlarda ham kelishi mumkin. Bunday hollarda ilovali elementlar u yoki bu dialogik birlikning replikasi funksiyasida kelishi mumkin. Masalan:

3. *Zanker denkt an, dass er vor zwei Wochen nicht laut geworden wäre. Vor zwei Wochen war der Plan, mit Helena nach allen Regeln der Kunst abzustürzen, Advent, Feuerzangenbowle, Helena ganz weich und angelehnt an ihn, das hatte Weihnachten in sich und so eine friedliche Stimmung, dann noch ein bisschen was Körperliches.*

[Tamara Bach „Jetzt ist hier“ Hamburg 2007.S-15]

4. *«Und Sie machen ihr jetzt die Kinder», sagte Josef». Ja. Das werden die Zwillinge. Dann noch den Jungen. Morgen Nacht mache ich einen kleinen Elektriker, mit Kartons im Arm und einer winzigen Kombizange»*

«Einen Südschweden».

«Ja. Einen kleinen» [Herbert Otto 1972: 146-147. 8]

№ 3, 4-raqamli misollarda ilovali elementlarning dialogik birliklar tarkibida javob replikasi funksiyasida kelishi haqida ilova konstruksiyaning o'rganilishi sohasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda juda ko'p ko'riladi, chunki bunday tuzilishdagi ilova konstruksiyalar og'zaki nutqda tez-tez uchraydigan konstruksiyalarga o'xshaydi. Har qanday o'xshash dialogik birlikning tuzilish formasi og'zaki nutq mahsuli hisoblanadi. Chunki so'zlashuv jarayonida nimadir tushirilib qoldirilishi yoki qisqa talaffuz qilinishini uchratish mumkin. Lekin dialogik birlik komponentlari ham bir-biri bilan doim ham semantik va ham sintaktik bog'lanishga ega bo'lgan replikalardan tashkil topgan. Bu replika to'liqsiz strukturaga ega bo'lishi ana shu dialogik birliklarning qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Chunki dialogik birliklarning strukturasi gaplashish, ya'ni og'zaki nutq jarayonida paydo bo'ladigan sintaktik birliklarning aksidir. Agar dialogik birliklar xuddi shunday shaklda namoyon bo'lmaganda edi, uni monologik matndan farqlab bo'lmas edi.

Endi ana shu dialogik birliklarni yakunlovchi komponent funksiyasida keluvchi ilovali elementlarning strukturaviy va ma'noviy xususiyatlariga to'xtab o'taylik.

Bu ilovali elementlar ham, o'z tabiatiga ko'ra yuqorida tahlil qilingan uzluksiz, ya'ni davomli xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlardir. № 4 raqamli ilovali konstruksiya to'rtta replikadan iborat bo'lgan dialogik birlikdan tashkil topgan. Demak, o'z tarkibida ilovali elementlarga ega bo'lgan dialogik birliklar – «bu murakkab sintaktik butunlikning o'zginasidir» deydi G.V. Kim [Kim 1963. 28]. G.V. Kim o'zining ushbu fikrini davom ettirib, «bu yerda tahlil qilinayotgan murakkab sintaktik butunliklar ilova xarakteriga ega bo'lgan dialogik birliklardan tashkil topgan bo'lib, ularning komponentlari, ya'ni replikalari o'rtasidagi sintaktik aloqa vositalari uzgacha xarakterga ega. Bu aloqalar biriktiruvchi bog'lovchilarsiz birikib kelayotgan ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarni» ta'kidlaydi [Kim 1963: 109. 28]. G.V. Kimning mazkur mulohazalari № 3, 4-raqamli misollarda keltirilgan ilovali xarakterga ega bo'lgan dialogik birlikda to'lig'icha o'z ifodasini topdi. Chunki bu yerda dialogik birlikning strukturaviy tarkibida uchraydigan ilovali elementlar ham biriktiruvchi bog'lovchilarsiz ifodalanib keluvchi ilovali elementlarning strukturaviy guruhlarini tashkil etadi. Eng qizig'i shundaki, agarda G.V. Kimning ilmiy ishlarida [Kim 1963. 28], gap dialogik birlikning yakunlovchi komponenti sifatida keluvchi ilovali elementlarning strukturaviy, stilistik xususiyatlari to'g'risida borsa, № 3, 4 -raqamli misollarda esa ulardan qisman farq qiluvchi, lekin birikishi jihatidan G.V. Kimning ilovali elementlarga o'xshash bo'lgan sintaktik birliklar to'g'risida gap boradi. № 3, 4 -raqamli misollarda keltirilgan ilovali elementlar birinchidan uzluksiz, ya'ni davomli xarakterga ega bo'lishlari bilan, ikkinchidan esa dialogik birlik tarkibida joylashish o'rinlari bilan G.V. Kimning ilovali elementlaridan farq qiladi.

Ilovali elementlar qaysi bir matn tarkibida bo'lmasin, ular doimo shu matnning yakunlovchi elementi sifatida yuzaga keladi, xuddi shunday xususiyat 3, 4-raqamli misollar tarkibida ham namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham, ilova hodisasi bilan shug'ullanuvchi olimlar ilovali elementlar tomonidan asosiy ifodaga bildirilayotgan qo'shimcha ma'no, hal qiluvchi, yetakchi ma'nodir, deb doimo ta'kidlaydilar. Haqiqatdan ham, xuddi shunday. Uning shunday ekanligini 4-raqamli misol namunasida ham kuzatish mumkin.

Demak, ilovali elementlar qaysi bir sintaktik birliklar tarkibida, qandaydir murakkab sintaktik butunlikning yakunlovchi, tugallovchi komponenti sifatida kelmasin, u doimo ta'kidlanish, belgilanish qoidasiga ega bo'ladi, chunki u doim mantiqiy urg'u oladi, doimo oldindan aytilgan fikrni rivojlantirish, to'ldirish maqsadida rema, polirema bo'lib kelaveradi.

Biz yuqorida to'ldiruvchilar bilan ifodalanib keluvchi uzluksiz, ya'ni davomli xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlar to'g'risida fikr yuritdik. Ammo uzluksiz yoki davomli ilova xarakteriga ega bo'lgan dialogik murakkab sintaktik butunliklar har doim ham biz bu yerda ta'kidlaganimizdek bir abzasdan iborat bo'lavermaydi. Ilovali element bir abzas ramkasidan chiqib, boshqa abzaslar tarkibida ham kelishi mumkin. Bunday holni isbotlash uchun faqatgina to'ldiruvchilar bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarga murojaat qilmasdan, boshqa strukturaviy guruhlariga ham murojaat qilish shart. Ana shunda aytilgan fikrlarni to'ldirish, kengaytirish va izohlab berish mumkin. Lekin, bu boshqa bir izlanish obyekti uchun mavzu bo'ladi degan umiddamiz.

Biz keltirilgan ayrim misollar tahlilida uzluksiz, ya'ni davomli xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlarning ba'zi bir xususiyatlari to'g'risida birinchi marta fikr yuritdik, chunki bunday strukturaviy xarakterga ega bo'lgan ilovali elementlar to'g'risida maxsus ilmiy ishlar olib borilgani yo'q. O'ylaymizki, bizning bu yerda aytgan fikr va mulohazalarimiz albatta o'z yechimiga ega bo'ladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanib va turli badiiy adabiyotlardagi misollar tahlilidan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, uzluksiz ko'rinishda bo'lgan ilovali elementlar deb bir yoki undan ortiq bo'lgan abzaslardan tashkil topgan ilova konstruksiyalar tarkibida takrorlanib keluvchi ilovali elementlarga aytiladi. Davomli yoki uzluksiz ilovali elementlardan tashkil topgan ilova konstruksiyalar va ularni tashkil qiluvchi komponentlar o'zaro bir-birlari bilan doimo mazmuniy bog'liq bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova B.M. Lion Feyxtbanger ijodida ilova hodisasi. Filol.nom. diss.- Samarqand 1998 y. 187 b.
2. Begmatov.M.B. „Nemis tilida ilova konstruksiyalar“ Samarqand 2020. фан.
3. G.V.Kimning ilmiy ishlarida „Kim 1963. “
4. Ким Г.В. К вопросу бессоюзных присоединительных конструкциях в диалогической речи. Филологический сборник. – Алма-ата.1963. – С. 107-114.
5. Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Дисс... докт. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 465 с.
6. Tamara Bach „Jetzt ist hier“ Hamburg 2007.
7. William Paul Young „Die Hütte,, Berlin 2011.